



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ILMIY KASHFIYOT JARAYONIDA INTUITIV VA RATSIONAL BILISH DIALEKTIKASI

Vahobova Dилфуза Razikovna

Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ilmiy bilish jarayonida intuitiv va ratsional shakllarning o'zaro dialektik aloqadorligi falsafiy va metodologik jihatdan tahlil qilingan. Muallif intuitsiyaning ilmiy kashfiyotlardagi o'rni, uning turlari (evristik, eydetik, konseptual) va namoyon bo'lish xususiyatlarini Lui de Broyl, A. Eynshteyn, N. Tesla va H. Gelmgols kabi yirik olimlarning ilmiy tajribalari misolida yoritib beradi. Maqolada intuitsiya mantiqqa zid hodisa emas, balki kognitiv jarayonlarning oliy va o'ziga xos evristik shakli ekanligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: intuitsiya, ratsional bilish, gnoseologiya, evristika, eydetik obraz, konseptual bilim, ilmiy kashfiyot, dialektika.

ДИАЛЕКТИКА ИНТУИТИВНОГО И РАЦИОНАЛЬНОГО ПОЗНАНИЯ В ПРОЦЕССЕ НАУЧНОГО ОТКРЫТИЯ

Вахобова Дилфуза Разиковна

Бухарский государственный университет, преподаватель (PhD)

Аннотация

В данной статье философско-методологически анализируется диалектическая взаимосвязь интуитивных и рациональных форм в процессе научного познания. Автор освещает роль интуиции в научных открытиях, ее виды (эвристическая, эйдетическая, концептуальная) и особенности проявления на примере научного опыта таких великих ученых, как Луи де Бройль, А. Эйнштейн, Н. Тесла и Г. Гельмгольц. В статье доказывается, что интуиция не является явлением, противоречащим логике, а представляет собой высшую и специфическую эвристическую форму когнитивных процессов.

Ключевые слова: интуиция, рациональное познание, гносеология, эвристика, эйдетический образ, концептуальное знание, научное открытие, диалектика.

THE DIALECTICS OF INTUITIVE AND RATIONAL COGNITION IN THE PROCESS OF SCIENTIFIC DISCOVERY

Vahobova Dилфуза Razikovna

Bukhara State University, Lecturer (PhD)

Abstract

This article provides a philosophical and methodological analysis of the dialectical relationship between intuitive and rational forms in scientific cognition. The author explores the role of intuition in scientific discoveries, its classifications (heuristic, eidetic, conceptual), and its manifestations through the experiences of prominent scientists such as Louis de Broglie, A. Einstein, N. Tesla, and H. Helmholtz. The study argues that intuition is not a logical contradiction but a supreme heuristic stage of cognitive activity.

Keywords: intuition, rational cognition, gnoseology, heuristics, eidetic image, conceptual knowledge, scientific discovery, dialectics.

Falsafa paydo bo'lgan paytdan boshlab, inson bilishining tabiati va mohiyatini nima tashkil qiladi? Uning eng umumiy qonuniyatlari va xususiyatlari nimalardan iborat? degan savollarga javob qidirib va javob berib keldi. Shu sababli, falsafada inson bilishining falsafiy muammolari bilan shug'ullanmagan birorta ham falsafiy oqim, birorta ham faylasuf yo'q. Aksincha, hamma falsafiy oqimlar va falsafiy yo'nalishlar bu sohaga oid o'z qarashlarining ma'lum tizimini ishlab chiqqanlar. Natijada, falsafada inson bilishining tabiati va mohiyati haqida turli xil ta'limotlar, turli xil qarashlar kelib chiqqan.

Ilm va fan yutuqlariga asoslangan faylasuflar insonning dunyoni va o'zini bilishini doimo e'tirof etib kelganlar. Qadimgi yunon faylasuflari inson dunyoni va o'zini bilishini, haqiqatga erishishi mumkin, deyishgan. Ular hissiy va aqliy bilishning roli haqida qimmatli fikrlar aytishgan.

XVII–XIX asrlarda intuitiv bilish haqidagi ta'limotlar ham kelib chiqdi. Falsafa tarixida intuitsiya atamasining mohiyati va uning turli ta'rif va ko'rinishlari borasida bir qancha

fikrlar mavjud.

Yangi axborotning hosil bo'lish jarayonini tafakkurni induktiv va deduktiv tushunishga tenglashtirib bo'lmaydi. Bu jarayonda bilishga yangi kuch, imkon va harakat yo'nalishi beruvchi intuitsiya muhim o'rin egallaydi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Insonning bunday qobiliyati borligini ko'plab olimlar e'tirof etishadi. Masalan, fransuz nazariyotchi fizigi, kvant mexanikasi asoschilaridan biri va 1929-yilgi Nobel mukofoti sovrindori Lui de Broyl (1892–1987) ta'kidlaydiki, agar fan asoslari mutlaqo ratsional bo'lganida, nazariyalarning rivojlanishi va hattoki tez-tez tubdan almashinuvi mumkin bo'lmas edi. Lui de Broyl fikricha, ilmiy tadqiqotlar jarayoniga olimning nafaqat ratsional, balki boshqa individual tafakkur xususiyatlari ham katta ta'sir etadi, degan fikrga qat'iy ishongan. "Bu masalani chuqurroq o'rganganda, – deb yozgan edi Lui de Broyl, – bu xususiyatlar fan taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etishiga osongina ishonch hosil qilish mumkin. Men qisman turli kishilarda turlicha bo'ladigan tasavvur qilish va intuitsiya sifatidagi shaxsiy qobiliyatlarni nazarda tutayapman. Tasavvur qilish bizga olamning fizik manzarasini yaqqol kartina sifatida ko'rishga, uning ba'zi detallarini aniqlashga yordam bersa, intuitsiya esa bizga qandaydir ichki anglashni to'satdan ochib, murakkab, har qanday umumiylikka ega bo'lmagan reallikning serma'noligini aniqlashga yordam beradi. Ular organik ravishda inson aqliga xos bo'lgan imkoniyatlar bo'lib, fanning paydo bo'lishida muhim rol o'ynagan va bugungi kunda ham shunday rol o'ynamoqda". [4; 293]

Aynan shu tufayli ilmiy yutuqlarga erishilmoqda, shuning uchun inson aqli, pirovard natijada, insonga nisbatan yaxshiroq hisoblayotgan va tasniflayotgan, biroq tasavvur ham, bashorat ham qilishga qodir bo'lmagan barcha mashinalar ustidan hukmronlik o'rnatishga qodir.

"Shunday qilib, fan o'z asoslari va uslublariga ko'ra, asosan ratsionaldir, – deb ta'kidlaydi Lui de Broyl. – U faqat aqliy qobiliyatlarni yanada samaraliroq ishga solish yo'li bilan borgan sari ko'proq yutuqlarga erishishi mumkin." [4; 294] Intuitsiya maxsus bilish jarayoni sifatida, bevosita yangi bilimni hosil qiluvchi jarayon tarzida, kishilarga xos bo'lgan sezgi va abstrakt tafakkur kabi umumiy qobiliyat sifatida namoyon bo'ladi. Intuitsiyani eksperimental o'rganish mumkin va uni eksperiment yordamida o'rganishga bag'ishlangan ishlar orasida J. Olton, K. Fakuarum asarlarini alohida ta'kidlash mumkin. Intuitsiyaning umumiyliги va keng tarqalganligini olib borilgan ko'plab kuzatishlar tasdiqlashi mumkin. Kutilmagan vaziyatlarda, axborotlar cheklangan sharoitda tez qaror qabul qilish zarur bo'lganda, o'z qarorini "oldindan sezganday", aynan shunday qilish lozimdek qabul qiladigan holatlar inson hayotida ko'p uchraydi. Insoniyat tarixida olimlar, konstruktor va rassomlar o'z sohasida "ilhom kelib qolgani" tufayli yoki "to'satdan esga tushib qolish" oqibatida yangi kashfiyotlarga erishganliklari bilan bog'liq misollar ko'plab uchraydi.

Bunday misollardan biri nechtasini keltirish mumkin. Musiqa tarixida yangi kuy yoki ohang bastakorga kutilmagan holda, masalan, tushida kelganligi ko'p bor sodir bo'lgan. Masalan, buyuk italyan skripkachisi, bastakori va musiqashunos olimi Juzeppe Tartini (1692–1770) tushida skripkada ajoyib musiqa chalayotgan alvastini ko'rgan. 1713-yilda Juzeppe Tartini tushida shayton bilan shartnoma tuzganini va shayton skripkada hayratlanarli darajada go'zal va murakkab musiqa chalganini ko'radi. Uyg'ongach, Tartini tushida eshitgan ohanglarini zudlik bilan qog'ozga tushirishga harakat qiladi. Garchi u o'zining ushbu asarini tushidagi "asl nusxa"ga nisbatan ancha kuchsiz deb hisoblasa ham, bu asar jahon skripka san'atining eng cho'qqisi va texnik jihatdan eng murakkab kompozitsiyalaridan biri bo'lib qoldi.

Elektrotexnika olamida inqilob yasagan Nikola Tesla (1856–1943) fenomenini tahlil qilish ilmiy kashfiyot jarayonida intuitiv va ratsional bilishning o'zaro dialektikasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Amerikalik psixolog va tadqiqotchi Donald J. Gouening qayd etishicha, Teslaning kashfiyotlari shunchaki tajribaviy izlanishlar natijasi emas, balki yuqori darajadagi eydetik vizualizatsiya mahsulidir.

1882-yilda Budapeshtdagi bog'da sayr qilib, Gyotening "Faust" asaridan parchalar mutolaa qilayotgan bir paytda, Teslaning ongida aylanuvchi magnit maydoni va o'zgaruvchan tok motorining to'liq konstruksiyasi kutilmaganda "chaqmoqdek" namoyon bo'ladi. Bu hodisani gnoseologik jihatdan quyidagicha asoslash mumkin: Tesla uchun kashfiyot jarayoni mantiqiy xulosalar zanjiridan emas, balki yaxlit (holistik) obrazning birdaniga namoyon bo'lishidan boshlangan.

Teslaning miyasida shakllangan texnik chizmalar shunchaki xayol emas, balki real metall konstruksiyalar kabi aniq, ravshan va sezilarli (eydetik obraz) bo'lgan. Tesla kashf qilgan o'zgaruvchan tok dvigateli avval g'oyaviy (konseptual) shaklda paydo bo'lib, so'ngra miyada vizual (eydetik) modelga

aylangan. Tesla o'zining laboratoriya tajribalarini o'tkazishdan oldin motorning ishlash jarayonini xayolan simulyatsiya qilgan va hatto detallarning yeyilishini ham ongidagi "virtual model" orqali bashorat qila olgan. Teslaning she'riyat mutolaasi paytida kashfiyot qilishi tasodif emas. Bu hodisa inson ongining badiiy-estetik idroki (she'riyat) kognitiv rezonator vazifasini o'tab, texnik muammoning yechimi uchun yo'l ochib berishidan dalolat beradi. Mazkur holatda badiiy obrazlar mantiqiy tafakkurdagi turg'unlikni yengib o'tishga yordam bergan. Teslaning tajribasi shuni isbotlaydiki, eydetik intuitsiya ratsional bilimni inkor etmaydi, balki uni eng yuqori evristik darajaga ko'taradi. Uning miyasida namoyon bo'lgan "aniq va ravshan obrazlar" keyinchalik qat'iy matematik hisob-kitoblar va muhandislik qonuniyatlari (ratsional bilish) yordamida moddiylashgan. Bu esa ilmiy kashfiyot jarayonida intuitsiya mantiqiy jarayonlarning "portlovchi" yakuni ekanligini tasdiqlaydi.

Nazariy fizikada fundamental kashfiyotlarning aksariyati intuitiv mushohada bilan uzviy bog'liqdir. Albert Eynshteyn (1879–1955)ning ilmiy ijod metodologiyasi bu borada alohida gnoseologik ahamiyat kasb etadi. Olimning fikricha, fizikaning fundamental prinsiplariga olib boruvchi to'g'ridan-to'g'ri mantiqiy-induktiv metod mavjud emas. Garchi gipoteza empirik faktlarga tayansa-da, u bevosita tajribadan mexanik ravishda keltirib chiqarilmaydi; aks holda, nazariya yaratish jarayoni ijodiy kashfiyot emas, balki oddiy tasniflashga aylanib qolar edi. Eynshteyn o'zining ilmiy faoliyatida erkin gipoteza yaratish prinsiplariga tayangan. Maxsus nisbiylik nazariyasining poydevori bo'lgan "vaqtning nisbiyligi" g'oyasi ham tajribaviy ma'lumotlarning induktiv umumlashmasi emas, balki kutilmagan intuitiv "vahiy" (insight) natijasidir. Olim o'zining kursdoshi Yakob Erat (Marcel Grossmann bilan birga o'qigan do'stlaridan biri) bilan suhbatlarida vaqtning bir vaqtda sodir bo'lmasligi haqidagi xulosa ong ostida to'satdan shakllanganini e'tirof etgan.

Maks Vertgeymer (1880–1943) bilan muloqotlarida qayd etilishicha, yorug'lik tezligining invariantligi (o'zgarmasligi) haqidagi g'oya ham intuitiv taxmin sifatida paydo bo'lib, keyinchalik mantiqiy-matematik deduksiya orqali nazariy tizimga aylantirilgan. Eynshteyn metodologiyasining mohiyati shundan iboratki, nazariyani tajribada tekshirish mumkin, ammo tajribadan fundamental nazariyaga olib boradigan mantiqiy yo'l yo'q. Bu ikki qutbni faqatgina intuitsiya birlashtiradi. Zero, uning tili bilan aytganda, "Haqiqiy qadriyat mohiyatiga ko'ra intuitsiyadir". Intuitsiya falsafiy bilishda ham muhim ahamiyatga ega. Aristotelning sillogizmlar g'oyasi, fransuz faylasufi, matematigi va fizigi Rene Dekart (1596–1650)ning falsafa va matematikani birlashtirish g'oyasi, nemis mumtoz falsafasining asoschisi Immanuel Kant (1724–1804)ning antinomiyalar g'oyasi va ko'plab boshqa g'oyalari odatda intuitsiya bilan bog'lanadi.

Bertran Rassel (1872–1970) ilmiy ijodda g'oyalarning "yetilish" (inkubatsiya) bosqichi muhimligini alohida qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, intellektual muammoni irodaviy zo'riqish bilan yechishga urinish har doim ham natija bermaydi; aksincha, ma'lum vaqt davomida g'oyalarning ongsiz ravishda shakllanishiga imkon berish lozim. Rassel o'zining ijodiy tajribasida hatto uyqu paytida ham kognitiv jarayonlar davom etishini, yangi g'oyalar yoki tayyor matn sahifalari tush ko'rish (eydetik vizualizatsiya) orqali namoyon bo'lishini bayon etgan. Bu holat ilmiy intuitsiyaning ongsiz va ratsional bosqichlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasdiqlaydi. [6; 17] Bertran Rasselning tush ko'rish shunchaki fiziologik hodisa emas, balki eydetik intuitsiya (obrazli ko'rish) ekanligini anglash zarur. Intuitsiya tushunchasining mazmuni juda keng, hamma vaqt ham insonlar "intuitsiya" deb ataydigan hodisalar intuitsiya bo'lavermaydi. Tafakkurda ko'plab xulosalar borki, ularga asos bo'ladigan hukm aniq holda ifodalanmaydi, bunday xulosalarning natijasi kutilmagan bo'ladi, ammo ular har doim ham intuitiv bo'lavermaydi.

Instinktlarga mansub hodisalarni doimo ham intuitiv deb o'ylamaslik kerak. U zarur sharoitda ro'y beradigan reaksiyaning avtomatizmi bilan tavsiflanadi va subyektning ongsiz bajaradigan fiziologik faoliyati doirasiga kiradi.

Ba'zida "hissiy intuitsiya" to'g'risida ham gapiriladi. To'g'ri, bunday iborani ishlatish mumkin, lekin bu "hissiy" bilish doirasida amalga oshirishni unutmazlik lozim.

Maxsus bilish fenomeni sifatida intuitsiya ko'p ma'nolidir. Biz intuitsiya deganda intellektual intuitsiyani (lot. *intellectus* – aql, insonning fikrlash qobiliyati), narsalarning tub mohiyatiga kirib borish asosidagi bilish jarayonini tushunamiz. Intuitsiyaga yana bir xususiyat, ya'ni bevositalik xosdir. Bevosita bilim deb mantiqiy asoslashga muhtoj bo'lmagan bilim tushuniladi. Intuitsiya shu ma'noda bevosita bilim hisoblanadiki, yangi fikrni ilgari surayotganda mavjud hissiy tajriba va nazariy fikrdan uni mantiqiy zarur holda keltirib chiqarish shart emas. Agar intuitsiyaning intellektual bog'liqligi va narsalarning mohiyatini aks ettirish bilan aloqadorligi e'tiborga olinsa, quyidagi ta'rifni asos sifatida qabul qilish mumkin:

intuitsiya haqiqatga erishishda bilimni to'g'ridan-to'g'ri isbotlash yordamiga tayanmasdan qo'lga kiritish qobiliyatidir. Intuitsiyaning namoyon bo'lishiga oid yuqorida keltirilgan fikrlar ushbu ta'rifga mos keladi. Shu bilan birga, ushbu fikrlar intuitsiyaga xos bo'lgan yana ikkita jihatni ham ko'rsatadi: kutilmaganlik va o'z-o'zidan (spontan) sodir bo'lishi. Barcha keltirilgan misollarda muammoning yechilishi to'satdan, kutilmaganda, tasodifan sodir bo'lgan va ijod uchun odatiy bo'lmagan hol bo'lib tuyuladi. Intuitiv "ko'rish" nafaqat tasodifan va kutilmaganda sodir bo'ladi, balki ushbu natijaga olib keluvchi yo'llar va vositalarni anglamagan holda ham ro'y beradi. Ba'zida natijaning o'zi ham anglanmay qoladi, intuitsiyaning o'zi bo'lsa, bunday holda voqelikka aylanmagan imkoniyat bo'lib qolaveradi. Individ intuitsiya vaqti kechinmalari to'g'risida hech qanday xotiralarni saqlab qolmasligi ham mumkin.

Shunday qilib, insonning intuitiv qobiliyatiga:

- masalaning kutilmagan yechimi,
- uni yechishning anglanmagan yo'llari va usullari hamda,
- muayyan masalada haqiqatga erishishning bevositaligi xosdir.

Bu belgilar intuitsiyani unga yaqin turgan psixik va mantiqiy jarayonlardan ajratib turadi. Lekin bunday hollarda ham xilma-xil hodisalarga duch kelamiz. Turli insonlar va turli sharoitda intuitsiya mazmuniga, natijaning xarakteriga, mohiyatning ichiga chuqur kirib borishiga va subyekt uchun ahamiyatligiga ko'ra xilma-xil darajada namoyon bo'lishi mumkin. Intuitsiya, birinchi navbatda, subyekt faoliyatining o'ziga xosligiga qarab bir necha turga bo'linadi. Amaliy faoliyat, ma'naviyat va ishlab chiqarishning xususiyatlari, yangilikning xarakteri turli sohalar tadqiqotchi intuitsiyasining xususiyatlarini belgilaydi. Kundalik, texnik, ilmiy, tibbiy, badiiy va boshqa shu kabi intuitsiya turlari mavjud.

Eydetik (obrazli) intuitsiyada muammoning yechimi ongda bir butun, yaqqol vizual obraz yoki hissiy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bunga mashhur shifokor Sergey Petrovich Botkin (1832–1889)ning faoliyati misol bo'ladi. Sergey Petrovich Botkin tibbiyotda "klinik intuitsiya" tushunchasiga katta urg'u bergan. U kasallikka tashxis qo'yishda nafaqat quruq laboratoriya natijalariga, balki shifokorning tajribasi natijasida shakllanadigan "tezkor va kutilmagan sezgi"ga ham tayangan. U o'z huzuriga kirgan bemor eshikdan o'rindiqqacha yetib kelguncha (xona uzunligi 7 metr) fikran oldindan tashxis qo'ygan. Ko'p hollarda uning intuitiv tashxislari to'g'ri chiqqan. Bu istalmagan shifokorlik tashxisi qo'yilishi sifatida xususiy simptomlarni umumlashtirish oqibatidir. Sergey Petrovich Botkin inson organizmini yaxlit tizim deb bilgan va miyaning ongsiz ravishda axborotni qayta ishlash qobiliyatini (ya'ni intuitsiyani) yuqori baholagan. Shu ma'noda, intuitsiya haqiqatan ham reduksiyani hatlab o'tadi va unda hech qanday yangilik yo'qqa o'xshab tuyuladi. Lekin boshqacha qaraganda, xususan, konkret tashxisni qo'yishda ko'p hollarda yechilayotgan muammo har safar yangilanaveradi. Bunday intuitsiyada ma'lum "qolip" (sxema) qo'llanilayotganligi uchun "standartlashgan" deb atalishi mumkin. Tajribali shifokorlar ana shunday standartlar yordamida tashxis qo'yishni o'rganishgan. Sergey Petrovich Botkin shifokor olim sifatida tibbiyot nazariyasini ishlab chiqar ekan, o'zining ilmiy faoliyatida bunday intuitsiyaga ko'p martalab murojaat qilgan. Bu unga sariq kasalligining yuqishligi to'g'risidagi gipotezani ilgari surish va isbotlashda yordam bergan. Masalan, Kekulening "o'z dumini tishlagan ilon" obrazi yoki Teslaning motor chizmalarini havoda aniq ko'rishi bunga yorqin misoldir. Bu yerda tushuncha hali so'z bilan ifodalanmagan, u "ko'rgazmali" holatda bo'ladi. Konseptual (nazariy) intuitsiyada yechim birdaniga abstrakt tushuncha, formula yoki mantiqiy g'oya shaklida keladi. Masalan, Eynshteynning vaqtning nisbiyligi haqidagi to'satdan kelgan xulosasi yoki Arximedning gidrostatika qonunini anglab yetishi. Bu jarayonda obraz emas, balki g'oyaviy mohiyat birinchi o'ringa chiqadi.

Intuitsiyaning gnoseologik tabiatini aniqlashda obrazli va mantiqiy komponentlarning dinamikasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Evristik intuitsiya bilish jarayonida o'zining yakuniy natijasiga ko'ra ikki asosiy shaklda: eydetik (vizual-obrazli) va konseptual (nazariy-mantiqiy) ko'rinishda namoyon bo'ladi. Inson ongida hissiy idrok elementlari va abstrakt tafakkur birliklarining o'zaro ta'sirlashuvi quyidagi gnoseologik modellar orqali amalga oshadi:

1. Hissiy-pertseptiv shakllanish bosqichida tashqi olam obyektlarining ongda birlamchi hissiy obrazlar (sezgi, idrok, tasavvur) sifatida aks etishi. Bu bosqich intuitiv "sakrash" uchun empirik baza vazifasini o'taydi.
2. Intra-vizual assotsiatsiya, ya'ni bir hissiy obrazdan ikkinchisiga o'tishning assotsiativ jarayoni. Bu bosqichda yangilik ko'pincha eydetik darajada bo'lib, mavjud tasavvurlarning ongsiz kombinatsiyasi natijasida yuzaga keladi.

3. Eydetik-konseptual transformatsiya (intuitiv induksiya), hissiy-ko'rgazmali obrazlardan bevosita abstrakt tushunchalarga o'tish. Bu intuitsiyaning eng muhim nuqtasi bo'lib, unda konkret vizual ko'rinish umumlashtirilgan ilmiy g'oyaga yoki qonuniyatga aylanadi.

4. Konseptual-eydetik interpretatsiya (intuitiv deduksiya) bosqichida abstrakt tushunchalarning vizual-fazoviy obrazlarga ko'chishi. Bunda nazariy g'oya ongda aniq model yoki "eydetik rasm" (masalan, atomning planetar modeli) shaklida gavdalanadi.

5. Diskursiv-mantiqiy operatsiya bosqichida tushunchalardan tushunchalarga o'tish orqali amalga oshadigan mantiqiy xulosa chiqarish tushuniladi. Bu jarayon asosan ratsional xarakterga ega bo'lib, intuitiv topilmani qat'iy mantiqiy tizimga solishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi yo'nalishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sof mantiqiy (5) va sof hissiy (1) jarayonlar o'z-o'zidan evristik intuitsiyaning tashkil etmaydi. Haqiqiy intuitiv kashfiyot uchinchi va to'rtinchi yo'nalishlar kesishgan nuqtada, ya'ni obraz va tushuncha o'rtasidagi mantiqiy zanjir uzilgan joyda sodir bo'ladi. Bunda ong "mantiqiy bosqichlarni hatlab o'tish" orqali eydetik tasvirdan konseptual mohiyatga (yoki aksincha) kutilmagan sakrashni amalga oshiradi. Ijodiy intuitsiya va uning turlariga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ijodiy intuitsiya o'ziga xos bilish jarayoni bo'lib, uning mohiyati hissiy obrazlar va abstrakt tushunchalar aloqadorligidan iboratdir. U ilgari tasavvurning oddiy sintez yo'li bilan yoki mavjud tushunchalarni faqat mantiqiy ishlash yo'li bilan emas, balki mutlaqo yangi obrazlar va tushunchalarni hosil qilishga olib boradi. Bunday intuitsiyalarga mashhur nemis kimyogar olimi Fridrix Avgust Kekulening benzol molekulasini tuzilishiga oid kashfiyoti yoki Rezerfordning atom modeli haqidagi g'oyalari misol bo'ladi. Ular shunchaki hissiy tajribani qayta tiklash emas, balki aniq tushunchalar yordamida shakllanadigan ijodiy jarayon mahsulidir.

Organik kimyo tarixida 1865-yilda benzol halqasining kashf etilishi intuitiv va ratsional bilish dialektikasining yorqin namunasi. Fridrix Avgust Kekule (1829–1896) ko'p yillik samaratsiz aqliy izlanishlardan so'ng tushida atomlarning ilon kabi buralib, o'z dumini tishlaganini (uroboros simvoli) ko'radi. Bu hodisa tasodifiy tush emas, balki gnoseologik jihatdan uzoq davom etgan intensiv ratsional tahlilning ongsiz bosqichida qayta ishlanishi — inkubatsiya davrining intuitiv yakunidir. Hermann fon Gelmgolts (1821–1894) ta'kidlaganidek, bunday "hal qiluvchi fikrlar" ko'pincha kognitiv zo'riqishdan keyin, inson dam olayotgan yoki miya kundalik charchoqdan forig' bo'lgan lahzalarda to'satdan namoyon bo'ladi. Bu holat ilmiy ijodda intuitsiyaning mantiqiy tafakkur zanjiri uzilgan joyda yangi gnoseologik sifatni (kashfiyotni) yuzaga keltirish qobiliyatini tasdiqlaydi. Shu ma'noda, fransuz matematigi, fizigi, astronomi va faylasufi Anri Puankarening (1854–1912) quyidagi so'zlari o'rinlidir: "Agar mantiq haqiqatni isbotlash vositasi bo'lsa, intuitsiya — kashfiyot qilish vositasidir." [5; 23]

Xulosa. Maqolada olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi: gnoseologik jihatdan intuitsiya va ratsionallik bilish jarayonining ajralmas ikki tomonidir. Mantiqiy tafakkur kashfiyot uchun zamin tayyorlasa va natijani isbotlab bersa, intuitsiya bevosita yangi bilimning "portlashi" va shakllanishini ta'minlaydi. Evristik salohiyat sifatida ilmiy ijodda intuitsiya shunchaki tasodif emas, balki uzoq davom etgan mental tahlil va tajribaning ong osti jarayonlarida qayta ishlanishi natijasidir. U kutilmaganlik, anglanmaganlik va natijaning bevositaligi bilan xarakterlanadi. Strukturaviy xilma-xillik nuqtai nazaridan intuitsiya o'z tabiatiga ko'ra eydetik (obrazli) va konseptual (nazariy) shakllarda namoyon bo'ladi. Bu shakllar hissiy-ko'rgazmali obrazlardan abstrakt tushunchalarga o'tishdagi "sakrash" mexanizmini tushuntirishga xizmat qiladi. Metodologik ahamiyati jihatidan esa zamonaviy fan taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, faqatgina qat'iy mantiqiy qoliplar bilan cheklanish fanni turg'unlikka olib kelishi mumkin. Intuitsiya esa ilmiy gipotezalarni yaratishning qudratli evristik vositasi sifatida fanning dinamik rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omildir. Falsafa tarixida intuitsiya muammosini o'rganish dunyoqarashni kengaytirib, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бунге М. *Интуиция и наука*. – М.: Прогресс, 1967. – 187 с.
2. Гельмгольц Г. *Публичные лекции, читанные в Московском университете*. – М.: Наука, 1982. – 635 с.
3. Декарт Р. *Избранные произведения*. – М.: Госполитиздат, 1950. – 712 с.
4. де Бройль Л. *По тропам науки*. – М.: Издательство иностранной литературы, 1962. – 408 с.
5. Пуанкаре А. *Ценность науки*. – М.: Наука, 1913. – 320 с.
6. Рассел Б. *Интуиция и научное творчество*. – М.: Прогресс, 1999. – 192 с.
7. Эйнштейн А. *Собрание научных трудов*. – М.: Наука, 1966.